



## NODIRA POETIKASIDA MIFOLOGIK OBRAZLARNING BADIY TALQINI

**Nurutdinova Malikaxon Sharabovna**

*O'zR.FA Alisher Navoiy nomidagi*

*Davlat adabiyot muzeyi tadqiqotchisi*

*E-mail: [malika122yun@gmail.com](mailto:malika122yun@gmail.com)*

*G'ariblik rasmini quyoshdan o'rgan, u tongda yolg'iz chiqib g'am shomlarida yolg'iz botdi.*  
(Nodira)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Nodiraning ijod pallasining serjilo qirralari to'g'risida fikr bildiriladi. U uzoq ajdodlarimizni inson qobiliyatining ideallashtiruvchi mifologik obrazlardan unumli foydalana bilgani haqida misollar orqali ifoda etiladi. Saxovat dengizining gavgari arab Muhammad (s.a.v), payg'ambarimizning tug'ilishi ulug' zotni dunyoga kelishi dunyo ahliga yaratganning olam xazinasini tuhfa etilganidan masrurona kayfiyatini ifoda etadi. Komila uning shafolat qilishiga umidvor bo'lib, erta-yu kech ko'z yosh to'kayotganini o'zining she'rlarida aytadi. Nodira Payg'ambarlarning har birini o'z davrida munosib o'rni borligini o'zini badiiyatida ko'rsata bilganligi haqida fikrlar bildiriladi. Nodiraning badiiy asarlari bilan tanishar ekansiz she'riyatimizning mif va afsonalar haqidagi yorqin munosabatini guvohi bo'lasiz.

**Kalit so'zlar:** mythos, mifologik obrazlar, sabr, qanoat, nomus, himmat, hayo mumtoz, poetika, xudo, na't, tarix, taqdir, olloh, judolik.

**Аннотация:** В данной статье высказывается мнение о тонких аспектах творческого цикла Надиры. Оно выражено на примерах того, как наши далекие предки умели эффективно использовать идеализирующие мифологические образы человеческих способностей. Рождение араба Мухаммеда (мир ему и благословение Аллаха), великое море щедрости, рождение нашего пророка выражает радостное настроение дара сокровища Вселенной людям мира. Камила говорит в своих стихах, что рано или поздно проливается слезы, надеясь на его заступничество. Высказываются мнения, что Надира смогла в своем искусстве показать, что каждый из Пророков занимал подобающее место в свое время. Познакомившись с творчеством Надиры, вы станете свидетелем яркого отношения нашей поэзии к мифам и легендам.

**Ключевые слова:** миф, мифологические образы, терпение, удовлетворение, честь, трудолюбие, скромность, поэтика, бог, история, судьба, Бог, разлука.

**Annotation:** In this article, an opinion is expressed about the subtle aspects of Nodira's creative cycle. It is expressed through examples of how our distant ancestors were able to effectively use mythological images that idealize human abilities. The birth of the Arab Muhammad (s.a.v), the great sea of generosity, the birth of our prophet expresses the joyous mood of the gift of the treasure of the world to the people of the world. Komila says in her poems that she sheds tears early and late, hoping for his intercession. Opinions are expressed that Nadira was able to show in her art that each of the Prophets had a worthy place in their time. When you get acquainted with Nadira's artistic works, you will witness the vivid attitude of our poetry to myths and legends.





**Key words:** *mythos, mythological images, patience, satisfaction, honor, diligence, modesty, poetics, god, history, fate, God, separation.*

Nodira porloq kelajakni orzu qilib, unga umid ko'zi bilan boqqan. U uzoq ajdodlarimizni inson qobiliyatining ideallashtiruvchi mifologik obrazlardan unumli foydalana bilgan. Ana shu mifologik obrazlar Nodira ijodida o'z aksini topgan.

Mif grekcha *mythos*-so'z, rivoyat so'zidan olingan bo'lib, dunyoning paydo bo'lishi, aziz-u anbiyolar, tabiat xodisalari, xudolar va pahlavonlar haqidagi asarlardir. Mazkur miflar ezgulik tarqatuvchi, insonlarga ruhiy madad beruvchi, tetiklik va osoyishtalik baxsh etgan. Nodira asarlarida tarixiy adabiy shaxslar va mifologik obrazlarning alohida o'rin tutadi. Nodira sabr, qanoat, nomus, himmat, hayo, kabi tuyg'u kishilarni ma'rifatli, yohud Olloh ishqiga yetishtiruvchi, yaqinlashtiruvchi makon sifatida qaraydi, insonlar shu sharaflari hislatlarni singdirib olishi va uni sobitqadamlik bilan ko'ngil tubida asramog'ini obrazli qilib tasvirlaydi. Inson zoti shu sifatlardan maxrum bo'larkan, u tubanlik yo'liga kiradi deb ta'kidlaydi. U o'zining barcha devonlarida bir qancha lirik asarlar yozgan. Nodiraning "Nodira-Komila" devonining debochasida na't bilan ya'ni Olloh ishqini tavsiflash bilan boshlaydi.

*Tojikcha:*

*Ҳамди он холиқи халақал арзу само,  
Кардам суҳан ба номи худованд ибтидо.*

#

*Халлоқи бемисол, худованди лоязол,  
Маъбуду зулчололика алҳамду сано.*

*Tarjiması:*

*Yeru osmonu borliqni yaratgan xudoga hamdlar bo'lsin,  
Xudovand nomi bilan boshladim.*

#

*Bemisol yaratuvchisan abadiy parvardigor,  
Sen ulug' yaratuvchisan, yakka-yu yagonasan, senga maqtovlar bo'lsin.*

Muhammad Rasullohga bag'ishlangan na'tlarda u muborak zotning bebaho insoniy fazilatlari ulug'lanadi, islom olamining u kishiga bo'lgan cheksiz ehtiromini rang-barang bo'yoqlar bilan bezaydi. Komilaning ijodida Quranning ta'siri ancha seziladi.

*Мунаввар гашти хуршеди ҳидоят,*





*Ба бутҳо аз сафоят, ё Муҳаммад.  
Туи бадри олий ки чо дар чашму дил бош,  
Ки шуд ин ду чоят, ё Муҳаммад.*

Mazmuni:

*Hidoyating quyoshi tufayli munavvar bo'lgan sanamlar ham,  
Nuri nazarindan bebahra qolmadi, yo Muhammad.  
Sen to'lin oydursan, ham dilimdan, ham ko'zimdan joy olding,  
Har ikkovi sening joyingdir, yo Muhammad.*

Payg'ambarimiz Muhammad (a.s) ikki olam sarvari, qo'llaguvchimidir. Borliq mulkining podshohi, hidoyatning quyosh tufayli dunyoga kelgan sanamlar ham nuri nazaridan bebahra qolmagani, shu sababdan to'lin oyday ham dilimda, ham joy olding. Har ikkovi ham sening joyingdur yo Muhammad deb tavsif qilishi ma'naviy olamning o'zgacha ko'rinishidir.

Tojikcha:

*Дар муҳити иноят Муҳаммади араби,  
Ки буд махзани олам туфайли гавҳари ў.*

#

*Мудом Комила гирён паи шафоати ту,  
Тараҳҳуми з-инояти ба дидаи тари ў.*

Tarjimasi:

*Arab Muhammadning saxovat dengizida,  
Uning gavhari tufayli olam xazinasini mavjud.*

#

*Komila sening shafloating umidida erta-yu kech yig'lamoqda,  
Inoyat bilan tarahhum qilib uning namli ko'zlariga rahm et.*[Nodira-Komila,83 g'azal,181-bet]

Ya'ni:

Saxovat dengizining gavgari arab Muhammad (s.a.v), payg'ambarimizning tug'ilishi ulug',zotni dunyoga kelishi ularga yaratganning olam xazinasini tuhfa etilganidan xavas qilyapdi. Komila uning shafolat qilishiga umidvor bo'lib, erta-yu kech ko'z yosh to'kayotganini aytadi.





Dinimizda har qanday shakldagi zulm, zo'ravonlik, fitna-fasod, buzg'unchilik, qaroqchilik, begunoh kishilarni qonini to'kish, nohaq odam o'ldirish, nafaqat insonlarga, hatto biror jonzotga ham ozor berish qat'iyan man etiladi. Nodira poetikasidagi asosiy yetakchi go'yasi ham quyidagi firlarni tasdig'i edi xolos.

Alisher Navoiy hazratlari aytadilar: "Namozni tugatgach, ustimda bir chumolini ko'rdim. U tahorat olgan joyimdan menga ilashganini bildim va bir jonzodni oshyonidan judo qilish gunohi yukini o'ylab, uni o'z joyiga qo'yib keldim". U zot bunday degan:<sup>1</sup>

*Kimki bir ko'ngli buzuqning xotirin shod aylagay,  
Oncha borkim, Ka'ba vayron bo'lsa, obod aylagay.*

O'zbek xalqining buyuk allomasi Alisher Navoiy va Bedil an'analariga sodiq bo'lgan Nodira Sharq mumtoz adabiyoti badiiy tajribalaridan ijodiy foydalanib, ilhomlanib, fors-tojik tilida ham go'zal, ta'sirchan she'rlar yozgan. Ular ham mazmun va badiiy mahorat jihatdan o'zbek tilidagi g'azallaridek yuksak darajada yozilgan bo'lib, shoira ijodini yana ham keng va to'laroq o'rganishda muhim rol o'ynaydi.

Nodira badiiyatida dunyoviylik bilan bir qatorda tasavvufning yo'nalishiga asoslangan bir butunlik orqali insonning jamiyat va tabiatga munosabatini ham, ilohiy muhabbat yo'lidagi ruhiy dunyosini ham juda go'zal va jonli misralarda ifodalab beradi.

*Tojikcha:*

*Бар Нўҳ аз талотуми тўфон начот дод,*

*Шуд қавми ў ҳалок ба амвочи ибтило.*

#

*Фармони ў зи санг баровард ноқаро,*

*То халқро ба даъвати солиҳ кунад нудо.*

*Tarjimasi:*

*No'hga to'fon balosidan najot berding,*

*Uning ummat(qavm)larining,balo to'lqiniga uchratib halok qilding.*

#

*Sening farmoning bilan tuya toshdan chiqdi,*

*Toki nabiy xalqni to'g'ri dinga da'vat etib nido qilg'ay.*

<sup>1</sup> "Hidayat"jurnali,O'z. musulmonlar idorasining diniy-ma'rifiy, ilmiy-adabiy nashr 2016,1-son,8,9 bet





Nodira poetikasida badiiy zavq- estetik did ufurib turadi. Hayotiy voqealarni aks ettiruvchi rivoyatlarda g'oyaviy- tematik jihatdan rang-barang tasvirlar, mubolag'alar, tarixiy voqealar va ayrim shaxslar bilan bog'liq bo'lgan voqealar, kishilar turmushi o'sha davrdan xabar beradi. Binobarin u yoki bu voqea haqida xabar berishi va uni tasdiqlash vazifasini o'taydi. Nodira asarlarida lutf va nazokat, aql va tadbir, ishq va vafo, yaxshilik va odamiylik kabi g'oyalar zulm va zo'rlik, haqsizlik va adolatsizlik singari illatlarga qarshi qo'yiladi. Uning she'rlaridagi g'oya hayotiy va uning yechimi ham realdir. Nodira lirikasi kishilar ruhiyatiga hamohangligi bilan go'zaldir.

Hozirgi kunda Respublikamizda qo'lyozma yodgorliklarini o'rganishga davlat miqyosida e'tibor qaratilmoqda. Bu madaniy merosimizni yanada chuqurroq tadqiq etishga hamda uning zamonaviy ahamiyatini ko'rsatib berishga har jihatdan yosh olimlar uchun M.Qodirovaning olib borgan ishlari dasturi amal bo'lib xizmat qiladi. M.Qodirova Nodira, Uvaysiy, Dilshod, Mahzuna kabi bir qancha o'zbek shoirlarini ijodini chuqur o'rganib biz yosh avlodlar uchun shoirlar ijodini o'rganishimizga zamin yaratdi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. N.Komilov. Tasavvuf 2-kitob. T., 1999, 194-b.
2. Mahbuba aya Qodirova Nodira-Komila Toshkent - 2004-yil 208-bet
3. Mahbuba Qodirova She'riyat va muhabbat malikasi;Risolaslasi.\\Mas'ul muharir: S. Hasanov|. -T.: G'. G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashri, 1998.-122 b.
4. Nodira Ey sarvi ravon:G'azallar (Nashrga Tayyorlovchi va so'zboshi muallifi M.Qodiriva; Mas'ul muharir A.Qayumov)-T.: G'ofur G'ulom nomidagi Nashriyot-matbaa birlashmasi, 1992.-144 b.
5. Otabek Jo'raboiev . Ardoqli dastxatlar // "Tafakkur" jurnali. 2012,№4.
6. Otabek Jo'raboiev . "Nahjal-farodis" – muhim ilmiy-adabiy asar //Imom al-Buxoriy saboqlari. 2004, №2.
7. Rahimjon No'monov O'zbek adabiyotshunoslari(Matn)-Toshkent: "Yosh avlod matbaa", 2021.-608 b.
8. Surayyo Eshonqulova. Mif va she'riyat. – Toshkent: Mumtoz so'z, 2009.
9. P.Shamsiyev. O'zbek matnshunosligiga oid tadqiqotlar.Toshkent.1986. 27-bet.

